

MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLAR

Ilyasov Kaxarman Qosbergenovich

Yuridika fakul'teti Fukarolik va biznes huquqi » kafedrası assistenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi va uning jamiyatimizda qay tarzda foydalanilish to'grisida tushunchalar tahlil qilingan.*

Annotation: *This article analyzes the concept of copyright and related rights and how it is used in our society.*

Kalit so'zlar: *mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, himoya qilish huquqi, mualliflik haqi, translyatsiya, ilmiy, adabiy san'at.*

Key words: *copyright, related rights, protection right, copyright, broadcast, scientific, literary art.*

Mualliflik huquqi (xalqaro amaliyotda - «copyright») ijodiy faoliyat natijasi hisoblangan va obyektiv shaklda ifodalangan ilmiy, adabiy va san'at asarlariga tarqatiladi.

Muallifga asardan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquq va unga o'zgartirishlar kiritishdan himoya qilish huquqi (asarining dahlsizligi huquqi) tegishlidir.

Ba'zi hollarda, masalan, ilmiy yoki ta'lim maqsadlarida, muallifning nomi va olingan manbasi albatta ko'rsatilgan holda asardan erkin foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Mualliflik huquqi vujudga kelishi uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki boshqa rasmiyatchiliklarga rioya qilish talab qilinmaydi. Mualliflik huquqi asarga uchinchi shaxslar tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan biron bir obyektiv shakl berilgan vaqtdan boshlab chiqarilishidan qattiy nazar amal qila boshlaydi. Og'zaki asarlarga mualliflik huquqi asar uchinchi shaxslar tomonidan ma'lum qilingan vaqtdan e'tiboran amal qila boshlaydi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, mualliflik huquqi aynan g'oyalarni ifodalash shaklini muhofaza qiladi, ammo g'oyalarning o'zini emas. Masalan, biron-bir shaxs texnika jurnalida mutloq yangicha bo'lgan uchish apparatini qanday qilib qurish mumkinligi to'g'risida o'z maqolasini e'lon qildi deylik. Agar maqola muallifi ushbu ixtironi patentlamagan bo'lsa, boshqa bir shaxs bunday apparatni qurish uchun uning g'oyalaridan foydalanishi mumkin.

Mualliflik huquqi muallifning butun umri va uning vafotidan so'ng muallif vafot etgan yildan keyin keluvchi yilning birinchi yanvaridan boshlab ellik yil davomida amal qiladi.

Asarga mualliflik huquqining amal qilishi muddati tugagandan so'ng u jamoatchilikka tegishli bo'lib qoladi.

Turdosh huquqlar postanovkalarga, ijrolarga, ijrolarning yozuvlariga, ko'rsatuvlar/eshittirishlarni efir va kabel orqali uzatish tashkilotlarining ko'rsatuv va eshittirishlariga tarqatiladi.

Ijrolarga bo'lgan huquqlar ijro etuvchilar – artistlar, sahnalashtiruvchi rejisserlar, dirijerlar va ularning merosxo'rlariga tegishli bo'lvadi. Bunday ijrolardan foydalanish huquqi boshqa huquq vorislariga o'tishi mumkin.

Ijro yozuviga bo'lgan huquq bunday yozuvni yaratgan shaxsga yoki uning huquq vorisiga tegishlidir.

Translatsiyaga bo'lgan huquq ko'rsatuv/eshittirishni yaratgan efirga uzatish tashkilotlariga tegishlidir.

Jamiyat manfaatlarini kengroq ta'minlash, dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalardan xabardor bo'lish uchun mualliflik huquqi cheklanishi mumkin. Ayrim asarlarga nisbatan mualliflik huquqi tadbiiq qilinmasligi mumkin. Mualliflik huquqini muhofaza qilish muddati tugagandan keyin asar ijtimoiy mulkka aylanadi va bunday asardan barcha erkin foydalanishi mumkin. Mazkur cheklashlar asardan normal foydalanilishiga o'rinsiz ziyon yetkazmagan va muallifning qonuniy manfaatlarini asossiz kamsitmagan taqdirdagina tatbiq etiladi.

O'zganing asarini shaxsiy maqsadlarda takrorlash deganda, o'zganing chop etilgan asaridan muallifning roziligisiz va mualliflik haqini to'lamagan holda shaxsiy maqsadlarda foydalanishga, basharti bunda asardan normal foydalanilishiga zarar yetmaydigan va muallifning qonuniy manfaatlariga putur yetmaydigan bo'lsa, yo'l qo'yilishi tushuniladi.

Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish usullari

Mualliflik huquqini himoya qilishda asosan quyidagi fuqarolik huquqiy vositalar qo'llanadi:

- ❑ huquqning tan olinishi;
- ❑ huquqi buzilganga qadar mavjud bo'lgan avvalgi huquqni tiklab qo'yish;
- ❑ bitimni haqiqiy emas deb tanish va uning haqiqiy emasligini qo'llash oqibatlar;
- ❑ davlat organi yoki o'zini-o'zi boshqarish organalarining aktini qonunsiz deb tanish;
- ❑ huquqni o'zi himoya qilish;
- ❑ majburiyatni mulk shaklida bajarishga yuklash;
- ❑ zararlarni qoplash;
- ❑ neustoyka undirish;
- ❑ ma'naviy zararni qoplash;
- ❑ huquqiy munosabatni o'zgartirish yoki uni bekor qilish;
- ❑ davlat organi yoki o'zini-o'zi boshqarish organining qonunga xilof aktiga nisbatan sud tomonidan akt qabul qilish.

Huquq egasi bilan shartnoma tuzmagan holda asardan foydalangan taqdirda qoidabuzar huquq egasiga yetkazilgan zararining o'rnini, shu jumladan boy berilgan

foydani qoplashi lozim. Huquq egasi qoidabuzardan o'zi ko'rgan zarar o'rniga uning qoidabuzarlik oqibatida olgan daromadlarini undirib olishga haqli.

Asardan mualliflik shartnomasida nazarda tutilmagan usulda yoki bunday shartnomaning amal qilishi to'xtaganidan keyin foydalanish asardan shartnoma tuzmagan holda foydalanish deb hisoblanadi. Qonunchilikka asosan turdosh huquqlardan foydalanish to'g'risidagi shartnomani bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan yoxud asardan shartnoma tuzmagan holda g'ayriqonuniy ravishda foydalangan shaxs shartnomani bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik to'g'risida umumiy qoidalarga muvofiq javobgar bo'ladi.

Muallif unga mualliflik huquqini buzish natijasida yetkazilgan ma'naviy ziyonni undirishni talab qilishga haqli. Ma'naviy ziyonni aniqlashda jabrlanuvchining jismoiniy va ruhiy qiynalishlari, xususan, jabrlanuvchining shaxsiy azoblari inobatga olinishi kerak. Ma'naviy ziyonning miqdori sud tomonidan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Boboyev X.B. va Odilqoriyev X. T. Umumiy tahriri ostida. "Davlat va huquq nazariyasi". "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000. 34-bet.
2. "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi". Mualliflar jamoasi. Toshkent, "Moliya", 2002. 72-73 bet.
3. Odilqoriyev X.T. va G'oyibnazarov Sh.G'. hammuallifligida. "Siyosiy madaniyat". Toshkent, IIV Akademiyasi nashryoti, 2004 42-43 bet.
4. Odiqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqorolik jamiyati. – T., 2002. 75-bet.
5. Saidov A. va Tojixonov U. hammuallifligida. "Islom Karimov Konstitutsiya to'g'risida". Toshkent, "Akademiya", 2001. 52-bet.
6. Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbe kistane. – T., 2002 101-bet
7. Rukavishnikov V. O.Politicheskiy kulturi i sotsialniye izmeneniya. Mumdunarodniye otnosheniye. – M., 1998..82-bet.